

KORXONALARDA BIZNES JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISH

Jizzax Sambhram universiteti o'qituvchisi

O'zbekiston Respublikasi, Jizzax shahar

Nahalboyev Lazizjon Bazarovich

Annotatsiya: Mazkur maqolada korxonalarda biznes jarayonlarini raqamlashtirish haqida tushuncha, raqamlashtirishda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining tutgan o'rni va bu borada jahon olimlarining qarashlari tahlil qilingan. Maqolada raqamlashtirishning biznes sohasiga oid afzalliklari o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: Raqamlashtirish, texnologiyalar, samaradorlik, biznes jarayonlari.

ЦИФРОВИЗАЦИЯ БИЗНЕС-ПРОЦЕССОВ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ

Преподаватель Джизакский университет Самбхрам

Республика Узбекистан, город Джизак

Нахалбаев Лазизжон Базарович

Аннотация: В данной статье анализируется понятие о цифровизации бизнес-процессов на предприятиях, роль информационно-коммуникационных технологий в цифровизации и взгляды мировых ученых на этот счет. В статье отражены преимущества цифровизации в сфере бизнеса.

Ключевые слова: цифровизация, технологии, эффективность, бизнес-процессы.

DIGITALIZATION OF BUSINESS PROCESSES IN ENTERPRISES

teacher of Jizzakh Sambhram University

Republic of Uzbekistan, Jizzakh city

Abstract: This article analyzes the concept of digitalization of business processes in enterprises, the role of information and communication technologies in digitalization, and the views of world scientists on this topic. The article reflects the advantages of digitalization in the business sphere.

Keywords: Digitalization, technologies, efficiency, business processes.

Bugungi bozor iqtisodiyoti muhitida raqobat juda kuchayib bormoqda. Bunday vaziyatlarda har qanday korxona o'zining biznes faoliyatidagi biznes jarayonlarini aniq va samarali tuzgan bo'lishi kerak. Agar biznes jarayonlari aniq va samarali tuzilmasa, bozor muhitining o'zi o'sha korxonani chetga surib chiqarib qo'yadi. Korxonalarni boshqarishda samaradorlikni oshirish uchun ko'plab vositalar mavjud, ammo, bugungi kunda ehtimol, eng asosiysi bu raqamlashtirishdir.

Zamonaviy korxonalar hozirgi kunda yuqori murakkablik, aniqsizlik va atrof-muhitning dinamik o'zgarib borayotgan sharoitlarida faoliyat ko'rsatishiga to'g'ri kelmoqda. Turli xildagi axborotlar hajmining ortib borishi, boshqaruv masalalarining murakkablashuvi, katta miqdordagi ichki va tashqi omillarning hisobini yuritish kerakligi qarorlarni qabul qilish jaraenlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va iqtisodiy-matematik modellardan keng foydalanishni talab qilmoqda.

Axborot texnologiyalarini rivojlanishi va takomillashishi va ularni buxgalteriya hisobi jarayoniga joriy etilishi buxgalteriya hisobida biznes jarayonlarini ham o'z ichiga olgan yakuniy biznes jarayonlarini ishlab chiqish vazifasini qo'ydi. Buxgalteriya hisobini yanada takomillashtirish nafaqat iqtisodiy faoliyat bo'yicha ma'lumotlarni hujjatlarda qayd etishning an'anaviy usullariga, balki prognoz hisobotini shakllantirishga, buxgalteriya hisobi funksiyalarini moliyaviy boshqaruvning turli funksiyalari bilan o'zaro bog'lash vositalariga asoslanishi kerak. Bunday imkoniyatga faqat moliyaviy hisobotning xalqaro

standartlarini (MHXS) tan olish va unga muvofiq holda hisobotlar tuzish va ularga muvofiq biznes jarayonlarini tashkil etish orqali erishish mumkin.

Shuningdek, xalqaro kompaniyalar tomonidan ishlab chiqilgan hujjatlar hamda ilg'or vositalar va tajribalardan foydalangan holda korxona biznes jarayonlarini tashkil etish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-4611 sonli qarorining qabul qilinishi kompaniyalar boshqaruv tizimlarida ilg'or xorijiy tajribalar va instrumentlardan foydalanishni ko'zda tutadi. Bugungi kunda global iqtisodiy o'zgarishlarning asosiy harakatlantiruvchisi raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishdir. Maqolaning maqsadi kashf etilgan axborot texnologiyalarining raqamli iqtisodiyotdagi boshqaruv jarayoni va korxonalar faoliyatining o'zgarishiga ta'sirini o'rganishdir. Zamonaviy muammolarga javoban boshqaruv funksiyalari o'zgarishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi sharoitda iqtisodiyotni boshqarish va boshqaruvni raqamlashtirish bilan bog'liq muammolar barcha darajalarda juda dolzarbdir. Raqamli transformasiyalar nafaqat tashkilotlar, balki davlat organlari faoliyatiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda.


Raqamlashtirish tashkilot natijadorligi va samaradorligini oshirish uchun zarur bo'lib, ayrim tarmoqlarda u tashkilot mahsuloti va ishlab chiqarish strategiyasining asosiga aylanadi. Raqamli texnologiyalar ta'siri ostida butunlay yangi biznes modellar, ishlab chiqarish zanjirlari shakllanadi, yangi mahsulotlar va innovasiyalar paydo bo'ladi. Samarali biznes-jarayonlarning shakllanishiga ularning turli xil mezonlarga muvofiq amalga oshirilishi mumkin bo'lgan to'g'ri tasnifi yordam beradi, lekin ko'pincha asosiy va yordamshi biznes jarayonlar ajralib turadi. Bundan tashqari, rivojlanish va takomillashtirish jarayonlari ajralib turadi. Korxona buxgalteriya hisobini takomillashtirish maqsadida ishlab chiqarish hisobini biznes jarayonlarini quyidagi yo'nalishlarda shakllantirish maqsadga muvofiq:

- rivojlantirish va takomillashtirish;
- operasion faoliyat;

- hisobotlarni tuzish va taqdim etish;
- qo‘llab-quvvatlash.

Buxgalteriya hisobi jarayonlarining rasmiylashtirilishi va batafsil tavsifi ularni boshqarishga imkon beradi

Biznesda axborot kommunikasiya texnologiyalarining quyidagicha funksiyalari mavjud



Korxonalarda ma'lumotlarni taqsimlash axborotlarga ehtiyoji bor periferiyadagi ish joyining elektron hujjatlariga va ma'lumotlar bazasiga kirish hamda boshqarish imkonini beradi. Dasturiy ta'minotni taqsimlash markazlashtirilgan dasturiy vositalardan bir vaqtning o'zida foydalanish imkoniyati ni beradi. Hozirgi paytda biznesni AKT asosi da takomillashtirishning maqsad ko'plab yo'nalishlari mavjud. Jumladan:

- BPR (Business process reengineering)– biznes-jarayonlarni qayta optimal tashkil qilish;
- TQM (Total quality management) – si fatni umumiy boshqarish;
- ISO (International Organization for Standardization) - xalqaro sifatga mos kel gan sifatni boshqarish tizimi.

Biznesni raqamlashtirish – bu boshqaruv, sotish, marketing, mijozlarga xizmat ko'rsatish va boshqalar bilan bog'liq muayyan vazifalar yoki jarayonlarni avtomatik ravishda bajarishga imkon beruvchi maxsus dasturiy ta'minot yoki

texnologiyani joriy etish jarayoni. Bu ishchilarning samaradorligini oshirish, qo‘l mehnatini yo‘qotish orqali xodimlar xarajatlarini kamaytirish, sifat va mijozlar ehtiyojini tezroq qondirish, ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish va osonlik bilan boshqarishga yordam beradi. Hozirda avtomatlashtirish quyidagi biznes jarayonlarida o‘z ta’sirini ko‘rsatdi:

Xodimlarni boshqarish: xodimlarni hisobga olish, ish haqi, ichki hujjat aylanishi – bu zamonaviy avtomatlashtirish tizimlari hal qiladigan vazifalarning faqat bir qismidir. Masalan, ayni davrga kelib aksariyat korxonalarda 1C IPB (Ish haqi va personalni boshqarish) dasturidan foydalanib, ish haqini hisoblash va kadrlar siyosatini avtomatlashtirish mumkin.

Marketing: mijozlarga xatlarni avtomatik yuborish va reklama vositalarining samaradorligini tahlil qilish (masalan, Google Analitika saytlar va ilovalardan ma'lumotlarni to‘playdi, reklama uchun foydali ma'lumotlar bilan hisobotlarni tuzadi).

Sotish: Bozor sotishni boshqarish uchun ko‘plab variantlarni taklif qiladi. Zamonaviy CRM tizimlari mijozlar oqimini kuzatish, barcha o‘zaro aloqalarni qayd etish, tranzaksiyalarni kuzatish va ma'lumotlarni tahlil qilish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, biznes jarayonlarini qisqa vaqt ichida avtomatlashtirish yoki to‘liq raqamlashtirish mumkin emas. Ammo bu masalaga jiddiy yondashilsa va vaqt ajratilsa, albatta natija samaraliroq bo‘ladi. Raqamlashtirish biznesni yuritishga, resurslarni optimallashtirishga, xodimlarning yukini kamaytirishga, boshqaruv va topshiriqlarning bajarilishi ustidan nazoratni osonlashtirishga va xatolarni kamaytirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5-oktyabrda №6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi qarori.
2. Ergashev, B.E. “Biznes jarayonlarni optimallashtirish va avtomatlashtirish”. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, Darslik. 2021.

3. Karimov, A.A. “Raqamli iqtisodiyot asoslari”. – Toshkent: TDIU nashriyoti, Darslik, 2020 yil.
4. R.D.Dusmurotov. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. –T., Darslik. 2020 yil.